MA’NAVIY MADANIYATDA DINIY ONG MASALASI

Gulzoda G‘aniyevna RAXMONOVA
tayanch doktarant
Qarshi Davlat universiteti
Qarshi, O‘zbekiston
g05509156@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy ong shakllaridan biri diniy ongning ma’naviyat tizimidagi o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha so‘z yuritilgan. Madaniyat ma’naviyatning predmetlashgan shakli va ijtimoiy ong unda katta rol o‘ynaydi. Shu bois ong shakllaridan biri diniy ongning ma’naviy madaniyatdagi roli ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy ong, madaniyat, ma’naviyat, ma’naviy madaniyat, din, diniy ong, axloq, axloqiy ong, daosizm, konfutsiylik.

ПРОБЛЕМА РЕЛИГИОЗНОГО СОЗНАНИЯ В ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЕ

Гульзода Ганиевна РАХМОНОВА
базовый докторант
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан
g05509156@gmail.com

Аннотация

В статье подробно рассматриваются место и значение религиозного сознания, как одну из форм общественного сознания, в системе духовности. Культура является объективированной формой духовности, и значительную роль в ней играет общественное сознание. Раскрывается одна из форм сознания, роль религиозного сознания в духовной культуре.

Ключевые слова: общественное сознание, культура, духовность, духовная культура, религия, религиозное сознание, этика, нравственное сознание, даосизм, конфуцианство.

Ma’naviyatning rivojlanishi birinchi navbatda, uning tarkibiy qismlari – ma’naviy ong, ma’naviy madaniyat, iroda va ma’naviy muhit rivojlanishiga bog’liq. Ma’naviy ong tuzilmasiga ko‘ra, shaklan ijtimoiy ongga mos keladi. A.Erkayev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “ijtimoiy ong to‘laligicha ma’naviyatga kirmaydi. Faqat uning barqaror, sobit, ijobiy mazmundagi qismi kiradi”. Ijtimoiy ong shakllariga muvofiq, ma’naviy ong quyidagi tuzilmaga ega: e’tiqod (falsafiy va diniy ong), axloq, din, nafosat, huquq, siyosiy qarashlar, ilm-fan, ekologik ong va boshqalar. Ijtimoiy ongda yangi ilg‘or g‘oyalar, tushunchalar, me’yorlar,

qoidalar, baholar, qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar, ideallar paydo bo‘lib, aholining nisabatan kattaroq qismini qamrab olsa, ma’naviyat boyiydi va rivojlanadi. Agar yangi eng ilg‘or g‘oya ham tarqalmasa, hech bo‘lmaganda ma’lum bir ijtimoiy guruh ichidan xayrixohlikni topmasa, u alohida bir shaxsning (olimning, ijodkorning, mutafakkirning) kashfiyoti bo‘lib qolaveradi. Ijtimoiy ong hodisasiga aylanmaydi. Binobarin, ma’naviyat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Bunday misollar tarixdan bizga ko‘p ma’lum. Ba’zi bir ilmiy, huquqiy, siyosiy, estetik g‘oyalar asrlar o‘tgach tan olingan, yoki qayta kashf etilgan. O‘z vaqtida ular turli sabablarga ko‘ra (asosan, zamondan ilgarilab ketgani uchun) tan olinmay unutilib ketgan. Yoki unutilmagan taqdirda ham yoyilmasdan qolgan. Shu sababdan, ma’naviyat rivojlanishini ijtimoiy ong shakllari rivojlanishi bilan bog‘liqlikda o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Zero, ijtimoiy ongdan tashqarida ma’naviyat shakllanmaydi ham, rivojlanmaydi ham. Ma’naviyat va ijtimoiy ong bog‘liqligini o‘rganmasdan na ma’naviyatni, na ijtimoiy taraqqiyotni to‘la anglash mumkin.

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi ma’naviy yuksaklik darajasini uning fuqarolari ma’naviy madaniyati belgilaydi. Ma’naviy madaniyat shaxsning jamiyat ma’naviy-axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs ma’naviy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, ma’naviy madaniyat ma’naviy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o‘z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ong yuksaklik darajasini jamiyat a’zolarining ma’naviy madaniyati belgilaydi. Ma’naviy madaniyat shaxsning jamiyatda qaror topgan asosiy ma’naviy-axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy me’yorlarni, tajribalarini egallashi va ulardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z-o‘zini bu borada muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Qisqasi, madaniyat shaxs va jamiyat ma’naviy taraqqiyotining belgisi va mezoni hisoblanadi. Ma’naviy madaniyat to‘g‘ri va erkin, samarali tafakkur yuritishning

qator unsurlarini o‘z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabatlarida, ijodiy faoliyatida, hayotiy rejalarida, e’tiqodida namoyon bo‘ladi.

Mohiyatan din inson ma’naviy hayotining ajralmas bo‘lagi, uning muayyan e’tiqodiy qadriyatlarga muvofiq kechishini taqozo qiladi. Din ma’naviyatning tizim yaratuvchi shakllaridan biri sifatida vujudga keladi va uning g‘oyalarining ilg‘or bo‘lishi, rivojlanishi, qotib qolmasligi, mutaassiblikka aylanmasligi ma’naviyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Va, aksincha diniy g‘oyalarni o‘ta dogmatik va mutaassiblarcha talqin qilinishi ularni insonparvarlikdan yiroqlashtirib, oxir-oqibatda salbiy mazmun kasb etishiga, ma’naviyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib keladi. Diniy-sha’riy tamoyillar va me’yorlar, hadisi shariflardagi o‘gitlar axloq-odob qoidalari va islom huquqi bilan chambarchas bog‘liq. Huquq bilan bog‘liq tomonlari muntazam isloh qilib boriladi, talqinlar va sharhlar zamon talablariga, xalqaro va dunyoviy milliy qonunchilikka moslashtiriladi, ba’zilari qayta ko‘rib chiqiladi.

Axloq bilan bog‘liq tomonlari esa (garchi ularning talqinlari va odamlar tomonidan tushunilishi zamonaviylashib, takomillashib borsada) o‘zining ancha sobitligini ko‘rsatadi. Buning sababi odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda axloq va din azaldan birlashgan, bir-birini qo‘llab-quvvatlagan. Axloq ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik deb baholaydigan, binobarin ma’lum xulq-atvorga undab, ruxsat beradigan yoki ta’qiqlaydigan narsalarni din savob, uvol (gunoh), halol va harom tushunchalari yordamida mustahkamlagan. Agar din odamlarni faqat sig‘inishga, ibodat va duoga chorlash bilan cheklanib, ijtimoiy-maishiy hayoti bilan qiziqmasa, odamlar o‘rtasida keng tarqalmas edi. Xuddi shunday, axloq va butun ma’naviyat tizimi din yordamida odamlar ongiga ta’sir ko‘rsatmasa u ham katta muvaffaqiyatga erishmas edi.

Inson eng oliy qadriyat sifatida ma’naviyat va din tomonidan qat’iy muhofaza etiladi. Odam o‘ldirish mumkin emas, odam o‘ldirish eng ulkan gunoh (diniy tushuncha) va jinoyat (dunyoviy-huquqiy tushuncha) sanaladi. O‘g‘rilik, birovning haqini yeyish, munofiqlik, aldash, yolg‘on gapirish va shu kabi boshqa

turli illatlar ham diniy-sha’riy, ham ma’naviy-axloqiy ham huquqiy nuqtayi nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e’zozlash, odamlarning bir-biriga ko‘makdosh bo‘lishi, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bo‘lmasin, unga hushomad qilishdan tiyilish, faqat Yaratgangagina sig‘inish singari fazilatlar ayni paytda ham diniy taqvo, ham ma’naviy hayot talabi tomonidan ma’qullangan xatti-harakatlardir. Shu bois axloqni dindan butunlay ajratish mumkin emas, ammo ular ma’naviy ong hodisalari ekanligini ham unutmaslik kerak. Masalan, daosizm va konfutsiylik dinlari ilohiy ta’limot emas, ma’naviy-axloqiy ta’limot asosida vujudga kelgan. Din, ta’kidlaganimizdek, insonni ma’naviylashtirishning vositasi tarzida ish ko‘radi. Demak, diniy taqvo bilan ma’naviy-axloqiy talabning maqsadi bir. Har ikki holatda ham vijdon ko‘zga ko‘rinmaydigan boshqaruvchi murvat sifatida namoyon bo‘ladi.

Endi tizim doirasida qaraydigan bo‘lsak, ma’naviy ong va diniy ong o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tushunchalar hisoblanadi. Demak, din inson hayotining ajralmas qismidir. Chunki din insonlar hayotiga maqsad – ma’ni bag‘ishlovchi, ularga ko‘mak beruvchi, ularni yupatuvchi kuchdir. Diniy ong, diniy me’yorlar, qoidalar ma’naviyatning yaxlit tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Din mo‘tadil va nisbatan ilg‘or tamoyillarga tayansa, ma’naviyatni gullab-yashnatadi. Din mutaassiblikka yuz tutsa, ma’naviyat deformatsiyalashadi. Din – tarbiya institutidir. Shu bois diniy-sha’riy tamoyillar va me’yorlar, hadisi sharifdagi o‘gitlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog‘liq. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda din asosiy institutlardan biridir. Axloq ma’lum harakatga undab, ruxsat beradigan, yoki ta’qiqlaydigan narsalarni din savob, uvol (gunoh), halol va harom tushunchalari yordamida mustahkamlagan. Bu bilan axloq va butun ma’naviyat ma’lum masalalarda barqarorlashishiga hissa qo‘shgan.

Din, ta’kidlaganimizdek, insonni ma’naviylashtirishning vositasi tarzida ish ko‘radi. Demak, diniy tarbiya bilan ma’naviy talabning maqsadi bir. U ham bo‘lsa insonning ijobiy xislatlarini yuzaga chiqarishdir. Jamiyatda insonlar o‘rtasidagi

munosabatlarda halollik va adolat tuyg‘usi qanchalik kuchli bo‘lsa, jamiyatda ma’naviy muhit shunchalik sog‘lom bo‘ladi.

Ba’zi diniy ekstremistik guruhlarning paydo bo‘lishiga asosiy sabablar orasida ular tomonidan diniy aqidalarning soxtalashtirilishi, siyosatga, huquqqa va axloqqa qarshi qo‘yilishi ham bor. Ular umuman ma’naviyatni inson tarbiyasida mumtoz axloqiy me’yorlardan ajratib, soxta me’yorlar, buzg‘unchi g‘oyalar bilan almashtirmoqdalar. Bu bilan dinning obro‘sini tushirmoqdalar. Chunki din uchun aqidalar hech qachon yagona maqsad bo‘lgan emas, bo‘lolmaydi ham. Din, avvalo, tarbiya institutidir. Uning maqsadi insonga Haqni tanitib, ezgulik va yovuzlik, halol va harom to‘g‘risidagi ilohiy ko‘rsatmalarni, ilohiy haqiqatni anglatib, solih, mo‘min kishini tarbiyalashdir.

Lekin shunday davrlar bo‘lganki, din davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan, bunday paytlarda esa jamiyat ma’naviy hayoti siyqalashgan. Masalan, quldorlik tuzumida din davlat mafkurasiga aylandi. Feodalizm davrida davom etdi. Bu davrda din va cherkovning roli jamiyat hayotida yuqori o‘rinda bo‘lgan. Davlat boshqaruvi va nazoratida ham din kuchidan foydalanildi. Jamiyat siyosiy hayotida diniy tashkilotning talab va ehtiyojlari yuqori qo‘yilgan. Hamma narsa din va cherkov uchun bo‘lib qolgan. Kishilar ijodiy faoliyati cheklangan. Bu esa kishilarning ma’naviy qoloqligiga sabab bo‘lgan. Natijada ijtimoiy ongning boshqa sohalari va ijtimoiy hayotning hamma sohalari davlat mafkurasiga, ya’ni dinga moslashdi. Uning talablarini hisobga olib ish tutildi. Bu esa ma’naviy hayotning dogmatik g‘oyalar ta’sirida qolishiga sabab bo‘ldi.

Islom mamlakatlari istiqlolga erishgandan keyin juda murakkab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklarga duch keldi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi o‘tish davrida iqtisodiy ahvolni yanada og‘irlashtirdi, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishuv kuchaydi. Sahnaga turli siyosiy guruhlar, partiyalar chiqib, hokimiyat uchun o‘zaro kurashni boshlab yubordi. Ba’zi bir siyosiy guruhlar barcha qiyinchiliklarda sobiq mustabid davlatlarni aybladi. Ular o‘z tarafdorlarini ko‘paytirish, ichki muxoliflariga va g‘arbdan kelayotgan neokolonializm xavfiga

qarshi kurashda islomdan foydalanishga, uni siyosiylashtirishga, uning niqobi ostida hatto harbiy to‘ntarishlar va qo‘poruvchiliklar qilishga urindi. Bunday urinishlar hamon davom etmoqda. Natijada yangi shakldagi siyosiylashgan islom ekstremizmi vujudga keldi. Bu esa siyosiy, huquqiy, axloqiy va diniy ongning o‘ziga salbiy, yemiruvchi ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Daraxtning bo‘shini qurt yeydi”, degan maqola bejiz aytilmagan. Afsuski, keyingi paytda ma’naviy hayotimizda bo‘shashish, bo‘shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteti zaif bo‘lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham boshqalarga ko‘rko‘rona ergashmoqda, deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida.

Demakki, insonda qaysidir ishida kemtik bormi u dindan najot izlayapti, umid qilyapti. Shu asnoda hali unda diniy bilim to‘laligicha yetarli bo‘lmasligi mumkin, lekin namoz o‘qiydi. U din nima ekanligini ongli ravishda tushunmasa ham, ammo Allohdan najot surab farzini bajaryapti. Umuman olganda, jamiyatda ham iqtisodiy ham ma’naviy sohalarni birgalikda rivojlantirish, insonlar uchun yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishi uchun adolatli tizimni belgilab berish lozim. Shundagina insonlar dinni ko‘r-ko‘rona emas, balki tushunib, o‘qib-o‘rganib talqin etadilar. Buning natijasida, haqiqiy diniy bilimlarga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatni bir tekisda tarozini pallasini teng tutgandek tuta oladilar. Aks holda, jamiyat sohalari o‘rtasida nomuqobillik yuzaga keladi. Demak, jamiyatdan yordam ololmagan shaxs dindan yupanch kutadi va ba’zi dinni o‘ziga niqob qilib, daromad topayotgan, niyati boshqa shaxslar guruhiga qo‘shilib ketadi. Bunday holatda jamiyatda ma’naviy ong tizimida beqarorlik yuzaga keladi, muvozanat buziladi.

A.Eynshteyn insonning eng yuksak maqsadlari va ularga qiziqishini, erishish mumkinligiga qat’iy ishonchni, diniy e’tiqod, dindorlik deb hisoblagan. Bu qiziqishning, e’tiqodning mazmuni ilohiy Zotga borib taqaladimi, yo‘qmi, yoki sof dunyoviy mazmunga egami – farqi yo‘q. Uning fikricha, fan insonga oliy maqsad berolmaydi, balki unga erishish yo‘lini ko‘rsatadi va ilmiy tadqiqotlar bu yo‘lda

qudratli vositasiga aylanadi. Albatta, A.Eynshteyn fikrini mutlaqlashtirib, inson hayoti, yashashdan maqsadini faqat din, dindorlik tashkil etar ekan qabilida tushunmaslik kerak. Lekin uning fikrida ma’lum ratsional mag‘iz bor. Haqiqatan, fan inson oldiga umumiy maqsad qo‘ya olmaydi, u aniq maqsadlar va hal qilinishi mumkin bo‘lgan aktual yoki lozim bo‘lgan strategik maqsadlar qo‘yadi. Bu maqsadlar inson hayotining ma’nisini, mohiyatini tashkil qilmaydi, balki hayotini yengillatishga, mazmunini aniq yutuqlar bilan yanada boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi davomida ma’naviy madaniyatda barcha ijtimoiy ong shakllari o‘zaro aloqada bo‘ladi. Ba’zan ular o‘rtasida ayniyat munosabatlari, ba’zan farq, ba’zan qarama-qarshilik kuzatiladi, ular doimo bir-birini taqozo etadi. Shu qatorda diniy ong ma’naviyat bilan o‘zaro aloqaga kirishadi va bir-birini boyitadi, yoki deformatsiyaga uchratadi. Shu bois, ma’naviy ong tizimini tashkil etuvchi ijtimoiy ong shakllarini bir xilda rivojlanishini ta’minlash zaruriy hodisadir. “Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”. Umuman olganda, ma’naviy ong strukturasining inson hayotiy faoliyati davomida predmetlashib, ya’ni amaliyotga aylanib, insonning amaliy faoliyatining ajralmas qismini tashkil etib borishi natijasida ma’naviy madaniyat yuzaga keladi. Ma’naviy madaniyat inson xulq-atvorida, uning yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatida, o‘zgalar bilan munosabatida ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent: Tasvir, 2021.
2. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 2-kitob. – Toshkent, 2018.
3. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma’naviyat. 1999.
4. Eynshteyn A. Din va Fan. Fan va Din //Tafakkur, 2016. – № 3.